

QASHQADARYO VILOYATIDA AHOLI KASALLANISHINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Safarov I.B – *Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi*

Norov O.O - *Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida aholi kasallanishining geografik xususiyatlari o'rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: aholi, kasallanishi, o'lim, tabiiy o'sish, ichki migratsiya, geografik xususiyat

ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ НАСЕЛЕНИЯ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Сафаров И.Б. – преподаватель Каршинского государственного
университета

Норов О.О. – студент Каршинского государственного университета

Аннотация: В статье рассматриваются и анализируются географические особенности заболеваемости населения Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: население, заболеваемость, смертность, естественный прирост, внутренняя миграция, географические особенности.

GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS OF POPULATION MORBIDITY IN KASHKADARYA REGION

Safarov I.B – teacher of Karshi State University

Norov O.O – student of Karshi State University. Uzbekistan.


Abstract: This article studies and analyzes the geographical characteristics of population morbidity in the Kashkadarya region.

Keywords: population, morbidity, mortality, natural growth, internal migration, geographical characteristics

Har qanday mintaqa yoki hududlarni tibbiy geografik jihatdan baholashda ayrim turdagi kasallik guruhlari bilan bir qatorda aholining umumiy kasallanish ko'rsatkichlari ham batafsil tahlil etiladi. So'nggi yillarda viloyatimiz hududida ekologik vaziyatning yomonlashuvi, aholi ijtimoiy ta'minotidagi o'zgarishlar va yuqorida keltirilgan sabablar oqibatida aholinish umumiy kasallanishi ortib borgan. Ular qatorida qon aylanish, ovqat hazm qilish, qon va qon hosil qiluvchi a'zolar kasalliklarining ortib borayotganligi bugungi kunda hammani tashvishga

qoldirmoqda. Viloyatimiz aholisi soni 2025-yil yanvar holatiga ko'ra 3 656 000 kishini tashkil etib, so'nggi 3 yillik ma'lumotlar taqqoslanganda, aholi so'nggi tug'ilish ko'rsatkichining ortganligi bois salmoqli darajada ko'paydi. 2018-yil holatiga ko'ra tug'ilish 25,5 va o'lim 4,1 promilleni, tabiiy o'sish ko'rsatkichi esa 21,4 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil (yanvar-sentyabr) holatiga ko'ra tug'ilish 28,6 va o'lim 4,2 promilleni, tabiiy o'sish 24,4 promilleni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar salmog'ida tug'ilishning yuqori sur'ati Chiroqchi, G'uzor, Dehqonobod, Qamashi, Nishon tumanlari, o'limning yuqori ko'rsatkichlari bilan esa Qarshi tumani va Qarshi shahri (5 promille), G'uzor, Yakkabog' (4,6 promille), Kasbi tumanlari alohida ajralib turadi. 2018-2021 yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, Qashqadaryo viloyati aholisining o'limiga sabab bo'layotgan asosiy kasallik turlariga quyidagilar kiritildi: umumiy aholi orasida jami o'lganlar miqdorining qariyb 59 %i qon aylanish tizimi bilan bog'liq kasalliklar tufayli va bu ko'rsatkich so'nggi 3yilda 2 % ga ortganligini, shunigdek 7,4 % aholi xavfli o'sma kasalligi, 6,3 %i nafas olish a'zolari xastaliklari, 5,3 %i ovqat hazm qilish a'zolari xastaliklari bilan vafot etganligi qayd etilgan. Baxtsiz hodisalar sababli vafot etganlar ulushi 4,5% ni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy o'lim ko'rsatkichi respublika miqyosida baholanganda, boshqa viloyatlarga nisbatan birmuncha past, har 10 000 aholiga nisbatan 38,6 kishi, eng yuqori ko'rsatkich esa Toshkent viloyatida qayd etilgan. Covid-19 va pnevmaniya yuqumli kasalliklari bilan xastalanish va vafot etganlar soni quyidagicha ko'rsatkichlarda talqin etiladi: O'zbekiston respublikasi bo'yicha 2022-yil 14-aprel holatiga ko'ra covid-19 yuqumli kasalligi bilan kasallangan bemorlar soni 238 242 kishiga, ular orasidan tuzalganlar 236 186 nafarni, vafot etganlar soni esa 1637 kishini tashkil etgan bo'lsa, pnevmaniya kasalligi bilan kasallanish holati esa umumiy 27 411 kishini tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar Qashqadaryo viloyatida quyidagicha ifodalanadi: 2836 nafar bemor covid-19 yuqumli kasalligi bilan xastalanib, 2661 nafarni sog'ayganlar qatorida va 175 nafari esa vafot etgan bemorlar orasidan o'rin olgan.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2018-2020-yillarda asosiy o'lim sabablari (kishi hisobida)



Manba: Qashqadaryo viloyati
sog'liqni saqlash boshqarmasi
ma'lumotlari

Viloyatda yuzaga
kelayotgan ichki migratsiya
jarayoni ham aholining
salomatlik darajasiga
ma'lum miqdorda o'z ta'sirini
ko'rsatadi. Jumladan, yangi


yerlarni o'zlashtirish va aholi punktlarining barpo etilishi bilan qo'shni viloyatlar va tumanlardan aholining ko'chib kelishi natijasida aholi orasida turli xil kasalliklar tarqalishi mumkin. Viloyat miqyosida aholining umumiy kasallanish holati har 100 000 aholiga nisbatan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 60 894,5 kishiga teng (ushbu ko'rsatkich ayniqsa, Kitob, Mirishkor, Qamashi, Yakkabog', G'uzor tumanlarida yuqori darajada), kattalar orasida esa bu ko'rsatkich viloyat miqyosida 54 370,1 kishini tashkil etadi (G'uzor, Kitob, Qarshi, Qamashi tumanlarida yuqori, 2021-y.).

Ma'lumki, aholining umumiy va birlamchi kasallanish holatiga tabiiy omillar bilan birgalikda ijtimoiy omillarning ta'siri ham yuqori ko'rsatkichlarda namoyon bo'lmoqda. Xususan, aholining turmush shart-sharoitlari: aholining moddiy faravonligi, turar joylar holati, oziq-ovqat tarkibi, kanalizatsiya, toza ichimlik suvi va boshqa maishiy inshootlarning bor yo'qligi, aholi zichligi va joylashuvi, migratsiya jarayonlari, aholining tibbiy sanitariya madaniyati, sog'liqni saqlash sohasi ishlarining umumiy holati kabilar muhim ahamiyatga ega va ularning har biri aholi salomatligiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi. Viloyat hududida ushbu omillarning ta'sirida yuzaga kelayotgan birlamchi kasalliklar bilan aholining kasallanish holati quyidagi tartibda yoritilgan:

Har 100 000 aholiga nisbatan xavfli o'sma kasalligi bilan kasallangan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 39,5 nafari G'uzor, 14,7 nafari Mirishkor

tumanlarida, 15-17 yoshdagi o'smirlar orasida esa 99,6 nafari G'uzor tumani, 25,5nafari Shahrisabz shahriga, kattalar orasida esa bu ko'rsatkich Qarshi shahrida 109,9 kishi, 105,5 kishi Mirishkor tumanida qayd etilib, eng yuqori ko'rsatkichlarda namoyon bo'lmoqda. Ichki sekretiya bezlari, ovqatlanish va moddalar almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga kelayotgan kasalliklar har 100ming aholiga nisbatan bolalar va o'smirlar orasida viloyatning Qamashi, Shahrisabz, Kasbi tumanlarida yuqori bo'lsa, katta yoshdagi aholi orasida bu ko'rsatkich Kitob, Qamashi, Nishon va Koson tumanlarida yuqoriligi bilan ajralib turadi. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari, immun mexanizmiga aloqador ayrim buzilishlar har 100ming aholiga nisbatan bolalar va o'smir yoshdagiaholi orasida Mirishkor, Muborak, Shahrisabz tumanlarida katta yoshdagi aholi qatlami orasida Muborak, Mirishkor, Dehqonobod tumanlari yuqori ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi.

Qashqadaryo viloyatida asab tizimi va ovqat hazm qilish a'zolari tizimi bilan kasallanganlarning umumiy ko'rsatkichi (% hisobida).



Manba: *Qashqadaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari*

Ruhiyat va xulq-atvor buzilishi bilan jami kasallangan bemorlar orasida (har 100ming aholiga nisbatan) Qarshi shahri (179,3 kishi), Chiroqchi (158,9 kishi),

Nishon (116,4 kishi), Shahrisabz (78,9kishi) shahri yuqori ko'rsatkich bilan alohida ajralib turadi. Har 100ming aholiga nisbatan jami yoshdagi asab tizimi bilan kasallanish bemorlarning yuqori ko'rsatkichlari viloyatning Kitob (1934,7 kishi), Qamashi (1676,3kishi), G'uzor (1549 kishi), Dehqonobod tumanlarida ko'zga tashlanadi. Ko'z va uning qo'shimchalari kasalliklari bilan kasallangan har 100ming aholiga jami bemorlar ulushi Qarshi t. (3122,9), G'uzor (3012,1), Nishon (2488,3), Kasbi tumanlarida, quloq va so'rg'ichsimon o'simta kasalliklari bilan kasallanish holati esa, Koson (3690,8), Qamashi (3315,8), G'uzor (3280,2) tumanlari va Shahrisabz shahrida yuqoridir. Nafas olish a'zolari kasalliklari Mirishkor, Qamashi, G'uzor, Muborak tumanlarida istiqomat qiluvchi aholi orasida eng ko'p uchrashi kuzatilmoqda.

So'nggi yillarda Qashqadaryo viloyatida istiqomat qiluvchi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan aholi orasida kasbga aloqador bo'lgan kasalliklar ham ko'p uchramoqda. Bunga asosiy sabab ekologik muhitning yomonlashuvi bilan birga qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan texnika vositalaridan to'g'ri foydalana olmaslik ham sabab bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan aholi o'rtasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida shu soha bilan band bo'lgan kasbli kishilar orasida ayniqsa, surunkali kasalliklar, oshqozon-ichak, asab va nafas olish a'zolari tizimi bilan bog'liq kasalliklar, ko'z kasalliklari ko'p uchrashi qayd etildi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi texnik vositalari bilan uzoq yillar davomida faoliyat olib borgan mexanizatorlar va shunga o'xshash kasb egalarida doimiy kuchli zo'riqish, stress holatlari tufayli ma'lum kasalliklar kelib chiqishi aniqlangan. Xususan, ular orasida radikult (orqa miya nerv tolalari kasalligi), bod (bo'g'im, muskul og'rig'i) kasalliklari bilan kasallanish holati ko'p uchraydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qarshiboyevna K. N. Aholi salomatligi va sog'liqni saqlash tizimini yaxshilashda horijiy mamlakatlar tajribasi // PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – C. 112-117.
2. Komilova N. K. et al. Territorial definitions of population mortality in Uzbekistan //Astra Salvensis. – 2019. – T. 1. – C. 619-640.

3. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) // Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321-324.